

ASTANOVA GULNORA AMINOVNA

**ARAB TILI FONETIKASINI
O'RGANISH USULLARI**
(SHARQ (ARAB) TILI FANI MUSTAQIL
TA'LIMIDAN KO'RSATMALAR)



HP
BUKHARA HAND PRINT

ISBN 978-9943-9229-3-8



9 789943 922938

UOK 811.411.21'342(072)

A 85

Astanova Gulnora Aminovna.

Arab tili fonetikasini o'rganish usuliyoti (Sharq (arab) tili fani mustaqil ta'limdan ko'rsatmalar) [Matn] : usuliy qo'llanma / G.A.Astanova.-Buxoro: BUKHARA HAMD PRINT, 2023. -68 b.

KBK 81.2Arab-1

Arab tili fonetikasini o'rganishga bag'ishlangan bu usuliy qo'llanma talabdalarga mustaqil ta'limda usuliy ko'rsatma vazifasini bajaradi hamda ularni til fonetikasining nazariy va amaliy masalalari va vazifalari bilan tanishtiradi. Shuningdek, qo'llanma arab tilining paydo bo'lish tarixi, arab tili fonetikasining yo'nalishlari, bo'limlari hamda o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot beradi.

Qo'llanmada arab tili fonetikasini hozirgi o'zbek adabiy tili fonetikasi bilan qiyosiy aspektida o'rganish usuliyoti qo'llanilgan.

Usuliy qo'llanma 5120100 – filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi bakalavrlariga mo'ljallangan "Sharq (arab) tili fanini o'rganishga qaratilgan.

Mas'ul muharrir – filologiya fanlari doktori, professor Y. Saidov

Taqritzchilar- filologiya fanlari doktori, dotsent Z.Q.Amonova

Buxoro shahri "Jo'ybori kalon" ayol-qizlar

o'rta maxsus islom ta'lim muassasasi

o'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i, sharqshunos N. Q.Raximova

**Mazkur usuliy qo'llanma BuxDU o'quv – metodik kengashining
2023 yil 25 yanvar 3-son kengashida nashrga tavsiya etilgan**

ISBN 978-9943-9229-3-8

© Astanova G.A.

© BUKHARA HAMD PRINT - 2023

KIRISH

Barcha zamonlarda ham ilm-fan yutuqlari asosida intellektual salohiyatning yuksalib borishi jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan hisoblangan. Biz yashayotgan globallashtiruv davrida bu jihatning muhimlik darajasi yanada ortganligi ijtimoiy hayotimizning har bir jabhasida sezilib turadi. Ta'lim sohasida mazkur masalaning qay darajada muhimligini mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlagan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, ta'limning har bir jabhasida natija bera oladigan ilg'or pedagogik hamda axborot texnologiyalarini joriy qilish, ta'lim samaradorligini jahon standartlari darajasiga yetkazish masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi bilan ham izohlash mumkin. Zero, "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz."

Shunga ko'ra davlatimizning xorijiy sharq mamlakatlari bilan ijtimoiy, siyosiy, madaniy va iqtisodiy aloqalari mustahkamlanib borayotgan bir paytda chet tillarini, jumladan, sharq tillarini mukammal biluvchi, salohiyatli filologlar, tarjimonlar, sinxron-tarjimonlarni yetishtirib berish kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bunda O'zbekistonning uzluksiz ta'lim tizimiga chet tillarini o'rgatish bo'yicha xalqaro ta'lim standartlarini joriy qilish va "chet tillarini egallashning umumiyevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish, baholash" darajalariga asoslanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda bosqichma-bosqich demokratik tamoyillarning ustivorligiga asoslangan yangi jamiyatni qurishga yo'naltirilgan islohotlar doirasida ta'lim-tarbiya ishlari katta ahamiyat berilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini ta'minlab

¹ Мирзиёва Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини бирлашқанда барпо этамиз.- Тошкент: Ўзбекистон, 2016.